



XORIJDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Odiljonova Aziza Abduxakimovna

ADU Umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14650334>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 3-yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 5-yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 13-yanvar 2025 yil

*Talabalar, vatanparvarlik, axloqiy
sifatlar, yoshlar siyosati, ma'naviy
tarbiya, o'zlikni anglash, fuqarolik
tarbiyasi.*

ABSTRACT

*Maqolada vatanparvarlik tuyg'usining ijtimoiy
psixologik mohiyati va shaxs shakllanishidagi
ahamiyati yoritib berilgan. Xorijda tahsil
olayotgan talaba-qizlarni vatanparvarlik ruhida
tarbiyalash jarayoni ma'naviy-ahloqiy sifatlarni
kamol toptirishda alohida o'rin tutadi.
Vatanparvarlik tarbiyasi-bu yosh avlodga jamiyat
hayotida barcha zarur huquqlarni ta'minlashga
xizmat qiluvchi davlat va yoshlar o'rtasidagi
munosabatlarni tartibga soluvchi, mavjud axloqiy-
huquqiy bazaga asoslanadi. Ushbu yo'nalishdagi va
hozirgi sharoitlardagi barcha ishlar mamlakat
me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish
zarurati bilan bog'liq.*

Vatanparvarlik tarbiyasi masalasiga mamlakatimizda davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Bu bejiz emas. Umuman, Sharq xalqlari, jumladan O'zbekiston hududida tarbiya masalasi hayotning iqtisodiy omillarida ustun qo'yiladi. Buning zahirida insonlarning iqtisodiy ehtiyojlaridan ko'ra ma'naviy ehtiyojlarini qondirish masalasi ustun ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yurtimizdan etishib chiqqan buyuk vatandoshlarimiz, mutafakkirlar, donishmand va siyosatchilar tarbiya va axloq masalasiga yakdillik bilan ijobiy va jiddiy munosabatda bo'lishni ta'kidlashadi. Imom al-Buxoriy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Xorazmiy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi salafning ilmiy-ijodiy merosida yoshlar tarbiyasi masalasi asosiy mavzulardan biri sifatida qaralgan.

Yangi tashkil etilgan O'zbekiston yoshlar ittifoqining asosiy faoliyat yo'nalishlari uning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatidan mazmunan farq qilishini ko'rsatadi:

- yoshlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularda fidoyilik hissi qonun toptirish;
- yoshlarni mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni zimmasiga oladigan siyosiy etakchilar sifatida tarbiyalash;
- yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish;
- yoshlarni turli mafkuraviy taxdidlardan asrash va ularni kitobga qiziqitirish;
- yoshlar o'rtasida oilaning muqaddasligini targ'ib qilish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni barvaqt oldini olish;

- uyushmagan yoshlarni bo'sh vaqtini band qilish maqsadida ularni sport, ijodiy va boshqa to'garaklarga jalb qilish va boshqalar.

Inson o'z hayoti davomida ma'lum bir joy, makon bilan umrbod bog'liq bo'ladi. Uning hayoti, faoliyati shu makonga uning mavjud bo'lgan sharoitlariga bog'liq holda shakllanadi. Inson bu makonni Ona – Vatan deb qadrlaydi. "Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini anglagani, nasl – nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi" – deb ko'rsatib o'tadi birinchi prezidentimiz Islom Karimov. O'sib kelayotgan yoshlarda vatanparvarlik hissini paydo bo'lishi, o'ziga xos holda ijtimoiy – psixologik jarayonlar, insonga va uning bilimi, malakasiga bog'liq holda shakllanadi.

Vatanparvarlik tuyg'usi insondan, jamiyatdan o'zlikni anglash ya'ni vatan manfaatlari yo'lida tinmay xizmat qilishni, uning ehtiyojlarini sezib turishni talab qiladi. Bu tuyg'u insonning ruhiy jarayonlari bilan bog'liqligi tufayli undan hissiy e'tiborni talab qiladi. Bunda Vatanning manfaat va ehtiyojlariga diqqat qilishni, ularni sezib turishni, ularni idrok qilib, ijodiy tafakkur bilan qurollangan holda Vatan taraqqiyoti uchun kuyunishni, ehtiyojlarini qondirish sari olib boruvchi hissiyotlarni shakllantirishni talab qiladi.

Ma'lumki, xorijda tahsil olayotgan talaba-qizlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni ma'naviy-ahloqiy sifatlarni kamol toptirishda alohida o'rin tutadi. Vaholanki, qizlarda o'z Vatanini himoya qilishi uchun zarur bo'lgan g'oyaviy- siyosiy, ma'naviy-psixologik va axloqiy sifatlarni rivojlantirish bo'yicha tizimli, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni belgilaydi hamda bu harbiy-texnik bilimlar, shaxsni jismoniy va ruhiy holatini takomillashtirishga turtki beradi.

Yuqorida keltirilgan vatanparvarlik tarbiyasi mohiyatiga tayanib, u o'zining belgilangan chegaralari, sifatli tavsiflariga egaligi bilan ajaralib turadi. Bu uning o'ziga xos xususiyatlari, maqsadlari, vazifalari, yo'nalishlari va vositalarini ajratishga imkon beradi.

Xorijda tahsil olayotgan talaba-qizlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jamiyatda o'zining shaxsiy sifatlarini ijtimoiy yo'naltirish bo'yicha asosiy vazifasini bajaradi, ya'ni inson omilini mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga faol, motivatsion-maqsadga yo'nalgan ta'sir etish orqali yo'naltiradi.

Xorijda tahsil olayotgan talaba-qizlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda fuqarolik tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Chunki, fuqarolik tarbiyasi – bu huquqiy madaniyatni, aniq fuqarolik vaziyatini, o'z xalqiga ongli va ixtiyoriy xizmat qilishga tayyorlikni shakllantirishdir. Fuqarolik tarbiyasi insonning sifatlari, integrativ xususiyatdagi xususiyatlar majmuini ifodalovchi fuqarolik kabi ta'rif bilan tavsiflanadi. Insonning sifatlari, integrativ xususiyatlar majmuiga vatanparvarlik, insonparvarlik axloqiy qadriyatlarga yo'налganlik, qadr- qimmat hissi, umuminsoniy birdamlik, ijtimoiy adolat va javobgarlik hamda o'zini-o'zi anglash zarurati, fikr erkinligi, shaxslararo va millatlararo muloqot madaniyati va boshqalar kiritiladi[35].

Vatanparvarlik tarbiyasi-bu yosh avlodga jamiyat hayotida barcha zarur huquqlarni ta'minlashga xizmat qiluvchi davlat va yoshlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, mavjud axloqiy-huquqiy bazaga asoslanadi. Ushbu yo'nalishdagi va hozirgi sharoitlardagi barcha ishlar mamlakat me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish zarurati bilan bog'liq.

Jumladan, xorijda tahsil olayotgan talaba-qizlarda vatanparvarlik tarbiyasini o'z kindik qoni to'kilgan yurtiga muhabbat hissini, milliy an'analar va madaniyatga hurmatini shakllantiradi hamda o'z xalqi uchun faxr hissini uyg'otadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Т.; «Ўзбекистон», 2017.-488 бет.
2. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т.: Адолат. – 1992. -44б.
3. Калканов Э.Т. Ватанпарварлик шаклланиши ва амал қилишининг боғлиқлик қонуниятлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалс. фан. ном. дис. автореф. – Тошкент, 2011;
4. Касимова, Т.А., Яковлев Д.Е. Патриотическое воспитание школьников: Методическое пособие. - М.: Айрис-пресс, 2013. - 64 С.
5. Константинов Н.А, Медынский Е.Н., Шабаета М.Ф. История педагогики: М.: Педагогика, 2013. 180 с



INNOVATIVE
ACADEMY